

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING YETISHMASLIGI VA TA'LIM SIFATIGA TA'SIRINING KOMPLEKS TAHLILI.

Xakimova Dildora Mashrabovna

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti,
Ijtimoiy va amaliy fanlar kafedrasi mudiri, p.f.d (DSc), dotsent

Mannopova Nilufar Ziyovuddin qizi

Qo'qon Davlat Universiteti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

Email. nilufarmannopova03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvning yetishmasligi hamda uning ta'lim sifati va bolalar rivojiga ko'rsatadigan ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, individual yondashuvni kuchaytirish ta'lim sifati oshirishning muhim omili ekani asoslab berildi.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the lack of an individual approach in preschool educational institutions and its impact on the quality of education and children's development. It also substantiates that strengthening an individual approach is an important factor in improving the quality of education.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ недостаточности индивидуального подхода в дошкольных образовательных организациях и его влияния на качество образования и развитие детей. Также обосновывается, что усиление индивидуального подхода является важным фактором повышения качества образования.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, maktabgacha ta'lim, ta'lim sifati, rivojlanish darajasi, bolalar qobiliyati, pedagogik talablar.

Key words: Individual approach, preschool education, quality of education, level of development, children's abilities, pedagogical requirements.

Ключевые слова: Индивидуальный подход, дошкольное образование, качество образования, уровень развития, способности детей, педагогические требования.

KIRISH (INTRODUCTION).

Bugungi kunda sifatli ta'limga erishish maqsadida pedagogik ta'limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda¹. Maktabgacha ta'limda individual yondashuv — bu har bir bolaning yosh, psixologik, jismoniy va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Ushbu yondashuv bolalarning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish sur'atiga mos metod va vositalarni tanlashni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash bolalarning rivojlanishini tezlashtiradi². Shu bois, ta'lim sifatini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik talablarni amaliyotga joriy etish muhimdir. Individual yondashuv — ta'lim-tarbiya jarayonida har bir shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda pedagogik ta'sirni tashkil etish tamoyilidir. Ushbu yondashuv shaxsning imkoniyatlarini to'liq namoyon etish va uning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.³

Maktabgacha ta'lim tizimi shaxs rivojining eng muhim bosqichi hisoblanib, bu jarayonda bolalarning individual psixologik, intellektual va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim jarayonida individual yondashuv yetarli darajada ta'minlanmaganda, bolalarning qobiliyatlari va rivojlanish sur'atlaridagi farqlar e'tibordan chetda qoladi, bu esa ta'lim samaradorligining pasayishiga olib keladi.⁴ Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari,

¹ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi PF-60-son 28.01.2022y

² Abdukarimov S.A. Raqamli texnologiyalar yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni boshqarish : ped.fan.nomz. ...diss...avtoref. — Toshkent, 2022. — B. 34.

³ Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // — Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 424 b

⁴ Raxmonova Husnida Azamat qizi "Maktabgacha ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va mavjud muammolar tahlili" Toshkent-2023. Part 3. 98-b.

qobiliyatlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, individuallashtirilgan ta'lim natijasida tarbiyalanuvchilarda yashirin bo'lgan qobiliyatlarni ham yuzaga chiqarish imkoni paydo bo'ladi. Har bir bola noyob shaxs sifatida qaralishi, uning xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya va ta'lim jarayoni tashkil etilishi zarur. Shu orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat va o'zini o'zi namoyon etish ko'nikmalari shakllanadi⁵. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvning pedagogik ahamiyati ayniqsa yuqori hisoblanadi.

METODLAR(METHODS).

Ushbu maqolada individual yondashuv tushunchasi maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi muhim nazariy va amaliy omildir. Bu jarayonda pedagogik metodlardan samarali foydalanish bolalarning jismoniy, psixologik va intellektual xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Pedagogik kuzatuv metodi. Mazkur metod orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan mashg'ulotlar jarayoni bevosita kuzatildi. Kuzatuv davomida tarbiyachilarning mashg'ulotlarni tashkil etish uslubi, bolalar bilan individual ishlash darajasi, bolalarning faolligi, mustaqilligi va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi tahlil qilindi. Kuzatuv tizimli va maqsadli ravishda olib borilib, individual yondashuv elementlarining mavjudligi yoki yetishmasligi qayd etildi.

2. Suhbat va intervyu metodi. Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar bilan suhbatlar o'tkazildi. Suhbat jarayonida tarbiyachilarning individual yondashuv haqidagi tushunchalari, amaliy faoliyatda duch kelayotgan muammolari, bolalar bilan ishlashda qo'llayotgan metodlari o'rganildi. Shuningdek, ayrim ota-onalar bilan ham suhbatlar tashkil etilib, ularning bolalar rivoji va ta'lim sifati haqidagi fikrlari tahlil qilindi.

⁵ Смирнова Е. О. «Индивидуальный подход в дошкольном возрасте: психологические основы». М.: Педагогика, 2024. – 263 с.

3. Amaliy mashg'ulotlar metodi. Tadqiqot jarayonida tarbiyachilar tomonidan o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar tahlil qilindi. Mashg'ulotlarda bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarning individual xususiyatlarga mosligi o'rganildi. Amaliy mashg'ulotlar davomida bolalarga berilgan topshiriqlarning murakkablik darajasi, differensial yondashuvning mavjudligi va natijadorligi tahlil qilindi.

4. Statistik metod. Tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlar statistik metodlar yordamida qayta ishlandi. Kuzatuv, suhbat va amaliy mashg'ulotlar natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, individual yondashuvning ta'lim sifati va bolalar faolligiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholandi. Statistik tahlil tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

5. Tahlil va umumlashtirish metodi. Tadqiqot davomida olingan barcha ma'lumotlar tizimlashtirilib, tahlil qilindi va umumlashtirildi. Natijalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

NATIJALAR (RESULTS).

Tadqiqot natijalari quyidagi muhim holatlarni aniqlash imkonini berdi:

1. Individual yondashuv kuchaytirildi. An'anaviy frontal mashg'ulotlar bilan solishtirganda, individual va kichik guruhlarda tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, amaliy mashg'ulotlar davomida bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarishga bo'lgan qiziqishi kuchaydi, savollarga faol javob berish holatlari ko'paydi. Loyihaviy metod asosida tashkil etilgan faoliyatlar ayniqsa samarali bo'ldi. Kichik loyihalar jarayonida bolalarning individual qiziqishlari va qobiliyatlari namoyon bo'lib, ularning ijodiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlandi. Loyihaviy faoliyat bolalarning hamkorlikda ishlash, fikr bildirish va o'z g'oyalarini himoya qilish malakalarini shakllantirishga xizmat qildi. Bu esa individual yondashuvning ta'lim sifatini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

2. Ta'lim sifatiga ta'sirining sabablari aniqlandi. Guruhlardagi bolalar sonining

ko'pligi tarbiyachining har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyati va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlashiga ba'zibir hollarda to'sqinlik qilayotgani aniqlandi. Natijada mashg'ulotlar asosan umumiy shaklda olib borilib, bolalarning individual ehtiyojlari yetarlicha inobatga olinmaydi. Bu holat bolalarning faolligi va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishining pasayishiga, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasida tafovutlarning yuzaga kelishiga olib keladi. O'z navbatida, individual yondashuvning cheklanishi maktabgacha ta'lim sifati pasayishiga sabab bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Guruhlardagi bolalar soni ko'p bo'lgan sharoitda ham pedagogik metodlarni samarali tashkil etish orqali individual yondashuvni ta'minlash mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mashg'ulotlarni kichik guruhlar asosida rejalashtirish, differensial topshiriqlarni qo'llash va loyihaviy metodlardan foydalanish tarbiyachiga har bir bolaning qiziqishi va rivojlanish darajasini hisobga olish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar va loyihaviy faoliyat jarayonida bolalar mustaqil ishlashga jalb etilib, tarbiyachining nazorati va yo'naltiruvchi roli kuchayadi. Bu esa bolalarning faolligini oshirish, bilim va ko'nikmalarni sifatli o'zlashtirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada, mavjud sharoitdan kelib chiqib metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash orqali ta'lim sifati barqaror ta'minlanadi.

MUHOKAMALAR (DISCUSSION)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvning yetishmasligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuvning yetishmasligi ta'lim sifati pasayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Bu holat bolalarning tabiiy qobiliyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, individual yondashuv bolaning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Individual yondashuv har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga oladi va bu yondashuv orqali o'quv jarayoni bolalar uchun moslashtiriladi. Tarbiyachi bolalarning qobiliyat va qiziqishlariga qarab ta'lim berish orqali individual yondashuv

ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi, aynan shuning uchun mazkur yondashuv bolalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, MTT tarbiyachilarining pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi vositalarini tavsiflovchi integrativ xususiyatlarni pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy qobiliyatlarini psixologik-pedagogik jihatdan rivojlantirish; pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda subyektlarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish; yagona ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish va rivojlantirish uchun o'zaro birikkan tarbiyalanuvchi, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini vujudga keltirish⁶ muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta'lim tashkilotlari va oilaning hamkorligi bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uyda ham sog'lom turmush tarzigarioyaqilish bolalarning bu boradagi bilim va odatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida pedagoglarning individual yondashuv bo'yicha ishlatgan metodlari samaradorligi aniqlandi. An'anaviy frontal mashg'ulotlar bilan solishtirganda, differensial topshiriqlar va loyihaviy metodlar qo'llanilgan ta'lim jarayonida bolalar o'z imkoniyatlarini erkinroq namoyon etish imkoniga ega bo'ldilar. Bu holat individual yondashuvning nafaqat bolaning bilim darajasiga, balki uning psixologik holati, ijodiy fikrlashi va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu esa guruhlardagi bolalar sonining ko'pligi sharoitida individual yondashuvni ta'minlashda metodik yondashuvlarning o'rnini yanada muhimligini va loyihaviy metod asosida tashkil etilgan faoliyatlar bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA(CONCLUSION).

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvning yetishmasligi ta'lim sifati va bolalar rivojiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim samaradorligini oshirishda mashg'ulotlarni differensiallashtirilgan tarzda tashkil etish, har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini hisobga oluvchi individual rejalaridan

⁶ Turg'unov S.T., L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent 2014, 122-bet

foydalanish chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim jarayonida individual yondashuvga asoslangan metodlardan foydalanish bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim sifatining yaxlit va barqaror oshishiga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish pedagogik yondashuvlarga bog'liq bo'lib, rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim tizimi sifat va samaradorlik mezonlariga asoslangan. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda ularni maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlashda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 60-sonli farmoni 28.01.2022 yil.
- 2.Abdukarimov S.A. Raqamli texnologiyalar yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni boshqarish : ped.fan.nomz..diss...avtoref. – Toshkent,2022. – B. 34.
- 3.Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.
- 4.Raxmonova Husnida Azamat qizi "Maktabgacha ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va mavjud muammolar tahlili" Toshkent-2023. Part 3. 98-b.
- 5.Смирнова Е.О. «Индивидуальный подход в дошкольном возрасте: психологические основы». М.:Педагогика, 2024. – 263 с.
- 6.Turg'unov S.T, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish,sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent 2014, 122-bet.
7. Yo'ldoshev A. "Maktabgacha ta'limda individual yondashuv". Darslik. – Toshkent: Fan, 2018. – 288 b.
- 8.Tursunova M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni

shakllantirishning psixologik-pedagogik omillari”. “Psixologiya va ta’lim” jurnali, 2021, №7. – 678 b.

9.Usmonov J. «Individual yondashuv orqali bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish».(monografiya) Samarqand: Ma’rifat, 2021. – 172 b.

10.Raxmonova H.A. Maktabgacha ta’limda interaktiv va individual yondashuvni boshqarish : ped.fan.nomz. ...diss...avtoref.–Toshkent, 2021. –B. 32.

ELEKTRON MANBALAR

- 1.*Individual yondashuv asosidagi ta’limning ahamiyati – cyberleninka.ru*
- 2.*Maktabgacha ta’limda individual yondashuv – zenodo.org*
- 3.*Pedagogik kompetentsiyaning samarali ishlashi –.semanticscholar.org*